



FORMATION OF IDEAS ON HUMAN RIGHTS IN UZBEKISTAN

Kholmuhammad Abdurasulov

PhD student at the National Center for Human Rights of the
Republic of Uzbekistan

E-mail: abdurasulovandu@mail.ru

Uzbekistan, Toshkent

ABOUT ARTICLE

Key words: human rights, evolution of human rights ideas, "Avesta", Eastern Renaissance, Timurids, Jadidism, development of human rights, Uzbekistan, Constitution, UN, international cooperation, national policy in the field of human rights.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the formation and development of human rights ideas in Uzbekistan, starting from the "Avesta" period, through the Islamic Renaissance, the Eastern Renaissance and the Timurid era to today's modern legal systems, based on historical, religious, philosophical and legal sources. This study also describes the formation of ideas related to justice and human dignity in ancient state traditions, the basic principles of Islamic law and the scope of human rights in the sources of Sharia, and the views of medieval scholars such as Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Biruni, and Navoi on human dignity, freedom and legal status. In addition, the article extensively covers the progressive views of the representatives of the Jadid movement on human rights at the beginning of the 20th century, their activities for education and women's rights. The article scientifically and theoretically reveals the coherence of human rights ideas, the harmony of ancient and modern legal traditions of Uzbekistan based on historical and legal thinking.

O'ZBEKISTON HUDUDIDA INSON HUQUQLARIGA OID G'OYALARNING SHAKLLANISHI

Xolmuhammad Abdurasulov

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi

Milliy markazi tayanch doktoranti

E-mail: abdurasulovandu@mail.ru

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: inson, shaxs, inson huquqlari, inson huquqlarining gʻoyalari evolyutsiya, “Avesto”, Sharq Renessansi, Temuriylar, jadidchilik, inson huquqlarining rivojlanishi, Oʻzbekiston, Konstitutsiya, BMT, xalqaro hamkorlik, inson huquqlari sohasidagi milliy siyosat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oʻzbekiston hududida inson huquqlari gʻoyalarning shakllanishi va rivojlanishi “Avesto” davridan boshlanib, Islom uygʻonish davri, Sharq renessansi va Temuriylar davri orqali bugungi zamonaviy huquqiy tizimlarga qadar boʻlgan uzviy taraqqiyot bosqichlari tarixiy, diniy, falsafiy va huquqiy manbalar asosida chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu tadqiqotda qadimiy davlatchilik anʼanalarida adolat va inson shaʼni bilan bogʻliq gʻoyalarning shakllanishi, islom huquqining asosiy tamoyillari va shariat manbalarida inson huquqlari qamrovi, oʻrta asr allomalari — Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy kabi mutafakkirlarning inson qadr-qimmat, erkinligi va huquqiy maqomi borasidagi qarashlari ilmiy asosda bayon qilinadi.

Bundan tashqari, maqolada XX asr boshlarida jadidchilik harakati vakillarining inson huquqlari borasidagi ilgʻor qarashlari, taʼlim va ayollar huquqlari uchun olib borgan faoliyati keng yoritilgan. Maqolada tarixiy-huquqiy tafakkur asosida inson huquqlari gʻoyalarning uzviyligini, Oʻzbekistonning qadimiy va zamonaviy huquqiy anʼanalarining uygʻunligi ilmiy-nazariy jihatdan ochib beriladi.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ПРАВАХ ЧЕЛОВЕКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Холмухаммад Абдурасулов

докторант Национального центра Республики Узбекистан

по правам человека

e-mail: abdurasulovandu@mail.ru

Узбекистан, Тошкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: личность, права человека, эволюция идей прав человека, «Авеста», Восточное Возрождение, Тимуриды, джадидизм, развитие прав человека, Узбекистан, Конституция, ООН, международное сотрудничество, национальная политика в области прав человека.

Аннотация: В статье дается глубокий анализ формирования и развития идей прав человека в Узбекистане, начиная с периода «Авесты», через исламский ренессанс, восточное возрождение и эпоху Тимуридов до современных правовых систем, основанных на исторических, религиозных, философских и правовых источниках. В исследовании также описывается формирование идей, связанных со справедливостью и человеческим достоинством в древних государственных

традициях, основные принципы исламского права и сфера прав человека в источниках шариата, а также взгляды средневековых ученых, таких как Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Бируни и Навои, на человеческое достоинство, свободу и правовой статус. Кроме того, в статье широко освещаются прогрессивные взгляды представителей движения джадидов на права человека в начале XX века, их деятельность в сфере образования и прав женщин. В статье научно и теоретически раскрывается согласованность идей прав человека, гармония древних и современных правовых традиций Узбекистана, основанная на историческом и правовом мышлении.

Mamlakatimizda demokratik an'analarning rivojlanishi shundan darak beradiki, inson va uning manfaatlari dunyo huquqiy madaniyatining eng oliy qadriyatlaridan biri bo'libgina qomay, o'zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi hamdir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson huquqlari tushunchasi global ahamiyat kasb eta boshladi. Boisi, insoniyat boshiga mislsiz kulfatlar keltirgan Ikkinchi Jahon urushi hamda uning moddiy va nomoddiy talafotlari davlatlarning kelgusida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bunday xunrezliklarni oldini olish, inson shaxsini qadriyat sifatida ro'yobga chiqarish hamda insonning asosiy huquqlariga bo'lgan mushtarak maqsadlariga erishishni tezlashtirdi.

1945-yil 24-oktyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi bilan yangi davrda nafaqat xalqaro xavfsizlik va barqaror tinchlikni ta'minlash, balki, inson va shaxs huquqlarini mustahkamlash borasidagi kafolatlovchi xalqaro-huquqiy kelishuvga erishilib, uning Ustavida ko'rsatilganidek: "Biz, Birlashgan Millatlar xalqlari..., insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining qadr-qimmatiga, erkak va ayollarning teng huquqliligiga va katta-kichik millatlar huquqlarining tengligiga ishonchni qayta qaror toptirishga qat'iy axd qilib, ...Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu Nizomini qabul qilishga rozilik berdik va "Birlashgan Millatlar" deb nomlangan tashkilotni ta'sis etdik".

BMT Nizomida e'lon qilingan shaxs huquq va erkinliklarini qaror toptirish va uni har bir jamiyatning ijtimoiy-huquqiy tafakkuridan o'rin olishini ta'minlash borasidagi xalqaro harakatlarning mantiqiy davomi sifatida, 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi – hozirda barchamizga ma'lum bo'lgan inson huquqlari tushunchasining tub mohiyatini ochib berdi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida e'tirof etilgan insonning asosiy huquqlari hamda erkinliklarining universal xarakteri: "Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak", - degan qoidadan kelib chiqadi.

Ushbu deklaratsiya inson huquqlari sohasida xalqaro-huquqiy me'yorlarning shakllanishiga va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Deklaratsiyasi e'lon qilinganining 40 yilligi munosabati bilan "Inson huquqlari: savollar va javoblar" sarlavhasi ostida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan nashr etilgan hujjatda bunday deyilgan edi: "Inson huquqi, usiz yashab bo'lmaydigan bizning azaliy, tabiiy va bashariy huquqimizdan iboratdir. Inson huquqi va asosiy erkinliklar bizga o'z insoniy iste'dodimiz, aql va vijdonimizdan foydalanib o'z ehtiyojimizni ta'minlashda imkon beradi".

Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston qo'shilgan dastlabki xalqaro hujjat bu – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo'ldi. Yosh davlat o'zining yangi rivojlanish yo'lida deklaratsiyadagi inson huquqlariga oid umume'tirof etilgan qoidalarni bajarishga tayyorligini, inson va shaxs erkinligiga bag'ishlangan standartlarga sodiqligini keng xalqaro maydonda namoyon etdi. Bugungi kungacha mamlakatimiz inson huquqlariga oid BMTning asosiy 9 ta shartnomasidan 7 tasini ratifikatsiya qilib, inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shilgan hamda tegishli konvensiyaviy organlarga o'zining davriy milliy ma'ruzalarini muntazam ravishda taqdim etish orqali inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini izchillik bilan bajarib kelmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi davlatlar uchun inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi taraqqiyot darajasini baholash imkonini beruvchi muhim huquqiy mezon hisoblanadi. Ushbu deklaratsiya o'zining umumiyliги va universalligi tufayli ko'plab davlatlarning konstitutsiyalari hamda milliy qonunlarida o'z aksini topgan. XXI asr boshlariga kelib esa, u xalqaro odat huquqining umumiy qabul qilingan normasi sifatida e'tirof etildi.

Aytish mumkinki, zamonaviy jamiyat inson huquqlarining biz bugungi kundagi tasavvurimizda ko'rib va anglab turgan shakliga kelishiga tarixan o'n yoki yuz yillar ichida erishgani yo'q, balki, bu g'oya tarixning bir necha mingyilliklari qaridan boshlab shakllangan. Tarixdan ma'lumki, changalzor qonunlari, tashqi va ichki xavf omili ostida omon qolish instinki insonni muntazam o'zaro jamoaviy munosabatlarga chorlab keladi. Natijada tashqi dushmanlarga qarshi birlashuv uchun mavjud tabiiy ehtiyoj insonni parallel tarzda o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishish asosida uning evolyutsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatibgina qolmay, munosabatlarda me'yoriy tartib o'rnatish zaruratini paydo qildi. O'z navbatida bu jarayon davom

etib, vaqt o'tishi bilan munosabat ishtirokchilari uchun muayyan huquqlar, burchlar va majburiyatlarni paydo qila boshladi.

Inson huquqining shakllanishi har bir jamiyatning tarixan kelib chiqishi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy sharoitlarning bevosita ta'siri ostida, uning xususiyatlariga mos ravishda rivojlanadi. Shu o'rinda akademik A.Saidov, inson huquqlari tarixi tushunchasini tahlil qilarkan, inson huquqlari tarixi – bu odamlarni insoniylashtirish tarixi, u yoki bu munosabatlar doirasi uchun u yoki bu odamlarning inson sifatida huquqiy tan olinishining tobora kengayib borishi tarixidir deb ta'kidlaydi.

Inson huquqlarini va asosiy erkinliklari g'oyasi, uning shakllanishi va rivojlanishi, uning barcha munosabatlarda ifoda etilishini ta'minlash kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Huquqlarning bu tizimi, go'yoki asrlar osha sidralab yig'ilgan, shakl berilgan, tarroshlangan, singan, buzilgan, yig'ilgan va yana bir butun holga keltirilgan o'ziga xos qadriyat, huquq eksponatidir. Olimlarning ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar va inson huquqlari g'oyalarining shakllanishi bundan taxminan 3-2 ming yil avval boshlangan. Bizning fikrimizcha, aynan bizning qadimiy diyorimizda, mintaqamiz hududida inson huquqlariga oid falsafiy qarashlar va inson huquqlari g'oyalari juda chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ularni muayyan davr voqea-hodisalari muvofiqligida quyidagicha tasniflash mumkin:

Inson huquqlarining "Avesto" erasi – (miloddan avvalgi IX-VIII asrlardan boshlab – VIII asr boshlariga qadar muddat oralig'i) Markaziy Osiyoda huquqiy tizimning dastlabki prototiplari qadimiy davrlardan shakllangan bo'lib, bu jarayonning huquqiy manbalaridan biri sifatida bundan uch ming yil ilgari Xorazm zaminida paydo bo'lgan zardushtiylk dinining muqaddas kitobi – Avesto alohida o'rin tutadi. Milliy davlatchilik va huquqqa katta ta'sir ko'rsatgan hamda qadim davrning yozma ifodasi bo'lgan "Avesto"da biz mintaqamiz qadimgi aholisining dastlabki ijtimoiy va e'tiqodiy qarashlarining shakllanishi, shuningdek, bu vaqtda yashagan ajdodlarimizning an'anaviy munosabatlarida huquqlar ibtidosining paydo bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bu diniy falsafaning markaziy konsepsiyasi yaxshilik timsoli Ahura Mazda va yomonlik timsoli Ahriman o'rtasidagi abadiy ziddiyat va kurashdir.

Ushbu manbada jamiyat, davlat hamda shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi va ilohiy xarakterga ega bo'lgan qoidalar majmui o'z aksini topgan. Shu o'rinda, mazkur huquqiy tartibotlarning Avesto yaratilishidan avval ham muayyan darajada amal qilganligi ehtimoli inkor etilmaydi. Chunki Avesto kabi yirik huquqiy va diniy yodgorlik o'z-o'zidan yuzaga kelmagan bo'lib, u ma'lum tarixiy, ijtimoiy va huquqiy asoslarga ega ekani huquqiy rivojlanishning obyektiv qonuniyatlaridan biridir.

Patriaxat davriga kelib, endi nafaqat biologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy ehtiyojlar jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani takomillashishiga olib keldi. Oilani tashkil qilish mexanizmining rivojlanishida asosiy o'rin oila a'zolarining o'zaro huquq va majburiyatlariga tegishli bo'lgan. Oila a'zolarining o'zaro xatti-harakatlarining murakkab mexanizmi bo'lgan ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini o'rganish, "Avesto" oilasining mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, "Avseto"da tasvirlangan va Markaziy Osiyo hududida shakllangan ilk davlatchilik va inson huquqlari asoslarining vujudga kelish jarayoni quyidagi uch davrga bo'linganini ko'rsatdi:

Birinchi davr – eng qadimgi davr bo'lib, bunda adolat va insoniy baxt-saodat hukmron bo'lgan.

Ikkinchi davr – yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasidagi adolat uchun kurashdavom etgan.

Uchinchi davrda aql-idrok va adolat tantana qilib, dehqonlar badavlat, davlatning siyosiy va qonuniy tizimi mustahkam bo'lishi uchun "Yaxshilik va sadoqatning amalga oshishi uchun, yaxshi hokimlar hukm yuritganlar" .

Huquqshunos N.Safo-Isfihoniyni ta'kidlashicha, "qonun tushunchasi zardushtiylikning ilk bosqichlaridanoq uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Zardushtiylikka xos muqaddas kitobning uchdan bir qismi turli bosqich va sohadagi qonunga taalluqli edi", zardushtlarning "amaliy qonunlar"ni o'zida mujassam etgan muqaddas kitobi - Avestoning maqsadi esa "har jihatdan va hamma munosabatlarda uyg'unlikka erishiladigan uyushgan, gullab-yashnayotgan jamiyat barpo etish" dan iborat bo'lgan.

Avestoshunos olim M. Turg'unov o'z tadqiqotida Qadimgi O'zbekistonda ilk davlatchilik va inson huquqlari taraqqiyotini 6 ta davrga bo'lib o'rgangan. Xususan:

1-bosqich – miloddan avvalgi II mingyillikning ikkinchi yarmi – O'zbekiston janubida embrional shaklda davlatga o'xshash tuzilmaning qaror topishi davri.

2-bosqich – miloddan avvalgi I mingyillikning boshi - miloddan avvalgi 539-yil – Baqtriya, So'g'd, Xorazm, tarixiy-madaniy viloyatlarining shakllanish davri.

3-bosqich – miloddan avvalgi 539 – 330-yillar – Ahamoniylar bosqini va Markaziy Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi sababli kelib chiqqan mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus davrini o'z ichiga oladi.

4-bosqich – miloddan avvalgi to'rtinchi asr oxiri – miloddan avvalgi ikkinchi asrning ikkinchi yarmi boshi – Aleksandr Makedonskiy bosib olgandan boshlab ellinlar siyosiy hukmronligi oxirigacha (Yunon-Baqtriya podsholigining qulashi) bo'lgan davr.

5-bosqich - miloddan avvalgi ikkinchi asrning ikkinchi yarmi va yangi eraning birinchi asri boshi – mahalliy davlatlar: Qang‘, Xorazm podsholigi, Buxoro, So‘g‘d, Dovon mustahkamlanishi va yanada rivojlanishi, Yuechji davlatining qaror topishi davri.

6-bosqich – milodiy asr boshi – III asrning birinchi yarmi – antik davrda mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi, O‘zbekiston janubining konfederativ Yuechji davlati asosida paydo bo‘lgan qudratli Kushon imperiyasi tarkibiga kirishi davrlarini qamrab olgan.

Zardushtiylik kitobiga ko‘ra, ayollarning nisbatan mustaqil huquqlari mavjud bo‘lib, ular shaxsiy mulkka ega bo‘lish, uni xayriya maqsadlarida tasarruf etish, sudda da‘vo qo‘zg‘atish, guvohlik berish va boshqa oilaviy-fuqarolik masalalar bilan bog‘liq huquqlar edi. Nikoh shartnomasi ikki tomonning roziligi asosida tuzilgan va muayyan muddatga (odatda 10 yil) mo‘ljallangan, muddat tugagach, yangidan shartnoma tuzish mumkin bo‘lgan. Ayollarning huquqlari sud jarayonlarida ham e‘tiborga olingan.

Er xotinini itoatsizlikda ayblasa ham, bu ayblov uch marta sodir etilib, sud tomonidan tasdiqlangan taqdirdagina rasmiylashtirilgan. Ayol esa o‘z aybsizligini isbotlash huquqiga ega bo‘lgan.

Zardushtiylikda bolalarning huquqlari qat‘iy himoyalangan. Voyaga etmagan bolalarni ota-onasidan ajratish og‘ir jinoyat hisoblangan. Bolalarni erta yoshdan ilmiy qilish tavsiya etilgan.

Quldorlik zardushtiylikda qoralanmagan bo‘lsa-da, qullar muayyan huquqlarga ega bo‘lib, ayrim hollarda xo‘jayiniga qarshi da‘vo qo‘zg‘atishi mumkin edi. Bu jihatlar zardushtiylik huquqining boshqa diniy tizimlarga nisbatan nisbatan progressiv xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, zardushtiylik huquq manbai bo‘lib xizmat qilishdan tashqari jamiyat hayotining huquq bilan bog‘liq barcha sohalarini o‘zida to‘liq jamlashga intilgan. Zardushtiylik dinining ana shu xususiyati uni yahudiylilik (iudaizm) va nasroniylilik bilan bir qatarga olib chiqqan. Shu bois o‘z huquqiy tizimini yaratish u yoqda tursin, huquqiy munosabatlarga kirishishdan umuman o‘zini chetga oladigan majusiylar – gnostiklar, buddaparastlar va monixeylardan farqlash uchun zardushtiylik, yahudiylar va nasroniylarni musulmon ilohiyotchilari “qonun kishilari” (aftidan “o‘z qonunlari bor kishilar”) deb hisoblashlari bejiz emas. Gnostiklar, buddistlar va manixeylar o‘z huquqiy tizimlarini yaratishga intilmaslik bilan birgalikda umuman huquqiy munosabatlarga kirishishdan o‘zlarini olib qochganlar, buni faqat zaruriyat bo‘lgan hollardagina bajarganlar .

Inson huquqlari to‘g‘risida g‘oyalar shakllanishida Islom Uyg‘onish davri (milodiy VII asr o‘rtalaridan – XIII asrning oxirlariga qadar davr) bevosita katta ta‘sir o‘tkazgan. Musulmon huquqi VII-X asrlarda Arab xalifaligida feodal munosabatlar shakllanayotgan davrda normativ tizim sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, uning asoslari islom dini ta‘limotlariga tayanadi. Islom huquqiy tizim sifatida ilohiy vahiy – Alloh taolo tomonidan insoniyatga nozil qilingan “Qur‘oni Karim”ga

va paygʻambar sunnalariga asoslangandir. Tarixiy jarayonda sarvari koinot Muhammad (s.a.v.) (taxminan 570–632-yillar) bashariyatga islom qoidalarini yetkazish uchun rasul (elchi) sifatida tanlangan. Alloh tomonidan inʼom etilgan bu huquq abadiy va oʻzgarmas boʻlib, ilmiy tilda aytganda jamiyat unga rioya etishi shartli majburiyat sifatida qaraladi. Shuningdek, Islom huquqi nazariy jihatdan ilohiy kashfiyot tamoyiliga asoslanib, uning qoidalarini islom huquqining yana ikki asosiy manbasi boʻlgan Ijmo va Qiyos orqali sharh berish va izohlashni talab etadi. Shu sababli, faqihlar (islom huquqshunoslari) asrlar davomida ushbu huquqiy normalarni ommaga tushunarli holda yetkazish va ularni jamiyat hayotiga amaliy jihatdan foydalanish uchun moslashtirish ustida ish olib borganlar. Natijada, shariat qonun-qoidalarining amaliy ahamiyati jamiyat uchun yanada qulay koʻrinishga keladi.

Musulmon huquqida Rimning keyingi davriga oid boʻlgan huquqdagi, qolaversa Gʻarb huquqiga xos boʻlgan qonun tushunchasi yoʻq. Nazariy jihatdan yolgʻiz Alloh qonunchilik hokimiyatiga ega. Amalda esa huquqshunos olimlarning asarlari Islom huquqining birdan-bir manbaidir. Islom huquqi mutaxassislar tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan. Davlat emas, balki fiqh – huquq ilmi qonun chiqaruvchilik rolini oʻynaydi.

Xijriy birinchi asrda islom huquqi shakllana bordi. Ikkinchi asr boshlariga kelib islom huquqi asosida turli huquq maktablari (mazhablar) paydo boʻlib, islom huquq tizimi sifatida oʻz qonuniy-huquqiy tarmoq yoki institutlariga ega boʻldi. Yuqorida taʼkidlanganidek, islom huquqiy asoslari ilohiy manbaga tayanib, uning yaratuvchanligi va oʻzgaruvchanligi Alloh tomonidan yuborilgan elchining mavjudligi bilan bevosita bogʻliq. Shu sababli, keyingi asrlarda islom huquqi rivojlanishida deyarli katta oʻzgarishlar sodir boʻlmadi.

Shu bilan birga, ana shu davr va undan keyingi turgʻunlikni islom huquqi huquq ijodkorligiga yaqin yana bir huquqiy usul – ijthod eshiklarini yopilishiga bogʻlaydilar. Umuman olganda, ijthod – bu mujtahidlar (yetuk faqihlar) tomonidan Qurʼon va Sunna qoidalarini asosida huquqiy harakterdagi masalalarni yechish uchun yangi hukmlar qabul qilish hamda shariat qonun qoidalarini ishonchli sharhlash metodidir. Oʻninchi asr boshlariga kelib bir qancha omillar, masalan, ulamolarning barcha asosiy fiqhiy muammolar oʻz yechimini topganligi haqidagi daʼvolari yoki hukmdorlar faqihlarni oʻz manfaatlariga moslab adolatsiz hukm chiqarishga undashi ehtimoli va salohiyati mujtahid darajasida boʻlmagan shaxslarning ijthod bilan shugʻullanishga kirishishlari tufayli ulamolar bu holatning oldini olish maqsadida “ijthod eshigi yopilganini” eʼlon qilganlar.

XIX asrga qadar Islom huquqiy ongining tadrijiy rivoji diniy-huquqiy sharhlar hamda fatvolar majmuida oʻz ifodasini topgan. Bu sharh va fatvolar esa shariatning anʼanaviy qoidalarini va prinsiplarini yangicha tarzda talqin etar ekanlar, hech qachon ularni ochiqdan-ochiq rad etmaganlar va ularning odatiy jarangini oʻzgartirmaganlar.

Islomgacha bo'lgan davrlardagi odatlar bilan taqqoslanganda, shariat arkonlari kambag'allar, yetimlar va ayollarga nisbatan jiddiy taraqqiyotni ifoda etadi. Qulchilik saqlanib qolingan bo'lsa ham, qullar muayyan huquqlarga, ayniqsa, ishlab topgan mablag'lari hisobiga hurlikni sotib olish huquqiga ega bo'lgan. Qullarning hurlikka erishishi dinning xizmati sifatida ko'rsatilgan. Ilgari keng tarqalgan ish – ayol jinsiga mansub bo'lgan chaqaloqlarni o'ldirish man etilgan. Qotillik yoki boshqa jinoyat uchun shaxsan o'ch olish uchun jazolash kuchaytirilgan. Odil sudlov din etakchilari tomonidan Qur'on arkonlariga qat'iy amal etish asosida amalga oshirilgan. Qur'onda er-xotinning ajrashishi, ajrashgan oilalardagi bolalarga nisbatan hukmlar keltirilgan.

Islom huquqida imkoniyati cheklangan kishilarga nisbatan adolat va mehribonlik bilan munosabatda bo'lish ta'kidlanadi. Ya'ni, agar biror kishining jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lsa, unga mashaqqatli majburiyatlar yuklanmaydi. Masalan, jihod yoki og'ir vazifalar ular uchun majburiy emas. Islom huquqining muqaddas manbalarida nogiron kishilarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida ko'rish hamda ularni ruhan, ma'nan va moddiyan qo'llab-quvvatlash lozimligi e'tirof etiladi. Masalan, Muhammad (s.a.v.) Madinadan tashqariga chiqib ketgan paytda ko'zi ojiz sahobani Madina hokimi qilib tayinlaganligi keltiriladi. Bu voqea nogiron kishilar ham yetakchi bo'lishi mumkinligini va ularga imkoniyat yaratish lozimligini ko'rsatadi.

Sharq olamida mashhur bo'lgan "Fiqh" ilmi inson huquqlari va ularni himoya qilishni shariat qonunlari asosida yoritib berishdagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Fiqh ilmi O'rta asrlarda sharq mamlakatlarida shariat me'yorlari va tartib-qoidalarini qonuniy yo'l bilan tartibga solib turish zaruriyati asosida vujudga kelgan.

VIII asr oxirlariga qadar islom dinining asosiy g'oyalari paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning sharxlari va ilmiy-tahliliy asarlar miqdori nuqtayi nazaridan yaxshi shakllanmagan edi. Bu davrdan boshlab islom ilmi, xossatan, xadishunoslik, aqida va fiqh ilmlari ravnaq topishi, kuchga to'lishining yuqori bosqichlariga chiqdi. Uning ilmiy-falsafiy va huquqiy bazasi islom huquqi va ta'limoti tavsifiga bag'ishlangan yirik asarlar bilan boyidi. Ushbu yutuqlarda asli arab bo'lmagan mutafakkirlar ilm darg'alari sifatida e'tirof etilib, arab olamini ortda qoldirdi. Xususan, Movarounnahr diyoridan etishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Iso At-Termiziy, Axmad Yassaviy, Abul-Qosim Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'inoniy, Muhammad Ustrushaniy singari fiqh, xadis va tasavvuf ilmining yetuk namoyandalari beqiyos hissa qo'shdi. Islom olamidagi eng ishonchli olti to'plamning uchtasi – Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasaiylarni yurtimizdan chiqqanligi yurtimiz ulamolarining bu sohadagi o'rinlarini ko'rsatib turibdi. Ular o'zlarining islom ilmiga bag'ishlangan durdona asarlarida inson huquqlari va uning ijtimoiy mohiyatini Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda qo'yilgan islom va shariat talablari asosida tushuntirishga harakat qilgan.

Inson huquqlarini shariat talablariga asoslanib tushuntirish hadislarda ham aniq aks etgan. Har bir hadis jamiyat hayotining muayyan muammolariga oid masalalarni ilgari surgani uchun, unda insonning turli huquqlari aniq misollar bilan bayon etiladi. Masalan, Imom Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asarida ota-onaning haqi, farzand va ota-ona oʻrtasidagi huquq va majburiyatlar, ziyorat qilish, turar-joyga ega boʻlish kabi huquqlar har bir hadisda alohida yoritilgan.

Hadislarda inson huquqlari aniq huquqiy misollar orqali tushuntiriladi. Unda insonning kimningdir oldidagi burchi (masalan, Alloh, uning rasuli yoki jamiyat) ayni paytda uning huquqi ekanligi ham koʻrsatilgan.

Islom manbalarida inson huquqlari uning xususiy haqi yaʼni toʻliq oʻzining xohish-ixtiyori bilan bogʻliq holda talqin qilinadi. Masalan, Imom Buxoriy farzandlarning ota-onani rozi qilish huquqiga egaligini quyidagi hadis bilan bayon qiladi: “Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannat) nasib boʻlib, Alloh Taolo uning umrini ham ziyoda qiladi”. Bu hadisda ota-onani rozi qilish insonning burchi boʻlishi bilan birga, uning huquqi ham ekanligi taʼkidlangan.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy oʻz qarashlarida inson huquqlari va ularni himoya qilish masalasiga alohida eʼtibor qaratgan. U toʻplagan hadislar va Rasululloh (s.a.v.) hayotiga bagʻishlangan asarlarda bu borada muhim fikrlar bayon etilgan. Jumladan, “Ash-shamoyil an-nabaviyah” (Paygʻambarning alohida fazilatlarini) asarida Rasululloh (s.a.v.) inson huquqlarini himoya qilishga qanchalik eʼtibor bergani haqida shunday deyiladi: “Muhammad paygʻambarimiz ...qachon bir kishining haqiga tajovuz qilinsa, ul holda gʻazablarini hech bir narsa bosolmas erdi. Andin intiqom olmay qoʻymas erdilar”. Bu fikrlar Paygʻambarimiz (s.a.v.)ning adolat va inson huquqlarini himoya qilishdagi qatʼiy pozitsiyasini ochiq-oydin namoyon etadi.

Hadisi Shariflarda insonning qadr-qimmatini kamsitishga yoʻl qoʻymaslik, uning shaʼni va obroʻsiga tajovuz qilmaslik, har kimning sir saqlashi, erkin fikr yuritishi, erkin soʻzlashishi singari shaxsiy huquqlari bilan birga, uning mulkka ega boʻlishi, turar joyli boʻlishi va uning daxlsizligi singari turli xildagi ijtimoiy huquqlari ham shariat talablariga va qonunlariga muvofiq tarzda himoya qilinishi zarurligi oʻz ifodasini topgan.

Imom Buxoriy, at-Termiziy, al-Mavraziy, al-Barakatiy, an-Nasafiy va boshqa koʻplab hadisnavis allomalar toʻplagan hadislarda ham asosiy huquqlar va ularni himoya qilishning zarurligi bilan bogʻliq masalalar haqida muhim maʼlumotlar keltiriladi. Inson huquqlari masalasining hadislarda berilishi bejiz emas. Chunki, islom dinida insonning shaʼni, qadr-qimmatini yuksak darajaga koʻtarilgan boʻlib, uni tahqirlashga qaratilgan har qanday urinish qoralanadi. Islomda barcha moʻmin-musulmonlar Allohning bandalari ekanligi va ular Alloh taolo oldida teng huquqqa ega ekanligi, Alloh taolo oʻz bandalarini ularning qilmishlariga yarasha himoya qilib turishi toʻgʻrisida muhim gʻoyalar ilgari suriladi.

Yangi davrda nafaqat diyorimiz balki butun islom olamining eng bilimdon olimlaridan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlari islomda inson huquqlari tushunchasiga to'xtalarkan, "...Allohning qo'li ila yaratilgan oliymaqom zot, Allohning ruhidan jon olgan mo'tabar zot va Allohning er yuzidagi xalifasi – o'rinbosari bo'lgan zot haqida so'z ketadi. Ana shunday zotning haq-huquqlari to'g'risida bahs yuritiladi.

...Islom ta'limotlarining barchasi, shariat ahkomlarining hammasi inson huquqlari masalasiga bog'liq qilingan, desak zarracha ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bu haqiqatni tushunib olishimiz uchun "Shariatning maqsadlari nimalardan iborat?" degan savolga javob berishning o'zi kifoya. Islom ummati bu savolga o'n besh asrdan buyon bir ovozdan "Islom shariatining maqsadlari dinni, jonni, aqlni, naslni va molni asrashdan iborat", deb javob berib kelmoqda.

Bugungi kunda ko'tarilayotgan inson huquqlari masalalari shu besh muhim narsa – din, jon, aql, nasl va molni asrash, muhofaza qilish hususida emasmi? Albatta, xuddi shu xususdadir .

Sharq Renessansi davrida inson huquqlari g'oyalarining rivojlanishi. Islom ma'rifatining bevosita ta'siri ostida Markaziy Osiyo ma'naviy hayotida butun irfon dunyosiga etalon bo'lib, fanning turli sohalari: falsafadan tortib aniq fanlargacha yuksak rivojlangan yangi bir davr – Sharqda Uyg'onish davri, ilm-fan va madaniyat inqilobi yuz berdi. Inson huquqlari g'oyalarining tarixiy-tadrijiy rivojlanishida bu davr (IX-XIII asrlar) alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu davrning o'ziga xos jihati shundaki, unda yashagan buyuk allomalar asarlari asosida zamonaviy inson huquqlari g'oyasining konseptual tamoyillari mazmun jihatdan beqiyos darajada boyidi hamda ushbu davrda yaratilgan asarlar inson qadrini jamiyatning falsafiy-huquqiy tafakkurida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyo mintaqasida ilm-fanning turli yo'nalishlari, xususan, sotsiologiya, din, falsafa va huquq sohalarining shaxs taqdiri bilan bog'liq holda har tomonlama tadqiq etilishi Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Al-Farg'oniy va Muhammad Al-Xorazmiy kabi beqiyos ilmiy-ma'rifiy meros qoldirgan buyuk mutafakkirlarimizning faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ularning adolat, erkinlik hamda inson qadr-qimmatini haqidagi chuqur falsafiy-huquqiy qarashlari demoratik jamiyatning asosi bo'lgan shaxs shakllanishining nazariy asoslarini belgilab berdi. Mazkur davrda shakllangan g'oyaviy meros inson huquqlarining keyingi huquqiy tizimlar doirasida evolyutsiya va takomillashuv jarayoniga mustahkam fundamental asos bo'lib xizmat qildi.

Inson huquqlari g'oyasi nafaqat diniy va huquqiy asarlarda, balki falsafiy tafakkurning eng yorqin namunalari ham o'z aksini topgan. Qomusiy olim, mutafakkir Abu Nasr Forobiy o'zining falsafiy qarashlari aks etgan bir necha asar va risolalarida adolatli jamiyat konsepsiyasini ilgari surib, inson jamoasi, uning ma'naviy kamoloti to'g'risidagi ta'limotni ilmiy asoslab bergan.

Forobiyning yozib qoldirishicha, “insoniy vujudan asosiy maqsad – eng oliy baxt-saodatga erishuvdir; avvalo u, baxt-saodatning nima va nimalardan iborat bo‘lishi, unga erishuvni o‘ziga g‘oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo‘lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish-amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. So‘ngra esa bu baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmog‘i lozim bo‘ladi”

Forobiy inson yaratilishining asl mazmun-mohiyati haqida bahs yuritarkan, uning bu dunyoga “bekordan bekorga” kelmaganini anglab olishi muhim ekanligi, Yaratuvchining belgilab bergan oliy Yo‘riqnomasi asosida o‘zining eng oliy maqsadi, ma‘rifiy kamolotiga erishishdagi yo‘lda barcha vositalardan manfaatli tarzda foydalanish lozimligi haqida fikr yuritadi.

U o‘zining “Fozil odamlar shahri” nomli asarida fozillar shahrining birinchi boshlig‘i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikkita xislat va fazilatni o‘zida birlashtirishi lozimligini ta’kidlaydi. Ular: sog‘lom bo‘lishi, nozik did va farosatli bo‘lishi, xotirasi kuchli bo‘lishi, o‘tkir zehnli, zukko bo‘lishi, chiroyli nutq so‘zlay olishi, ta’lim olish, o‘qishda yuksak qunt sohibi bo‘lishi, nafsini tarbiyalash olishi, odil va haqgo‘y bo‘lishi, nomus-oriyatli, tug‘ma oliyhimmat bo‘lishi, dunyoparast bo‘lmasligi, doimo adolat tomonidan turishi, har qanday zarur deb hisoblangan ishni qat’iyat va jasurlik bilan bajarishi lozimligi keltirilgan.

Forobiy nazariyasida qayd etilgan mazkur o‘n ikki fazilatning bir shaxsda to‘liq mujassamlashishi juda qiyin va juda kam uchraydigan holat sifatida baholanadi. Shu sababli, mutafakkir o‘z asarida bu fazilatlarning barchasiga ega bo‘lmasa-da, “...unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi yoki beshtasi kamol topganida ham, u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi” deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, Farobiy adolatli boshqaruvni amalga oshirishda boshqaruvning jamoaviy shakliga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, agar yuqoridagi fazilatlar bir qancha insonlarda mavjud bo‘lsa, ularning barchasi birgalikda kelishib shahar rahbarligida ishtirok etishi va bu ularning har birini fozil hokim darajasiga olib chiqishi mumkinligi aytiladi. Shu o‘rinda faylasuf “...mabodo, biror zamonda fozillar shahrida hokimlik qilayotgan bir yoki bir necha kishida boshqa zarur xislatlar bo‘lsa-yu, ammo donishmandlik bo‘lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunda shahar halokatga yuz tutadi”-deya ta’kidlagan.

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari juda boy bo‘lib, u o‘z asarlarida muhim ijtimoiy masalalarga e’tibor qaratgan. Ayniqsa, jamiyat tabaqalarga bo‘lingan va diniy mutaassiblik kuchli bo‘lgan davrda u siyosatshunoslik fanining vazifasiga ideal jamiyat va davlatni o‘rganishni kiritgan. Bu esa uning taraqqiyparvar va jasoratli mutafakkir ekanini ko‘rsatadi. U ilmiy faoliyatining ustuvor maqsadi qilib umumiy qonuniyatlarni aniqlash va tavsiflash vazifasini qo‘ygan bo‘lib, bu yondashuv o‘z davri uchun juda katta ilmiy jasorat edi. Forobiy o‘zi yashagan davrdagi hokimiyatning avloddan-avlodga o‘tuvchi monarxik shaklini

inkor etmagan holda, hukmdor albatta ma'rifatli va komil inson bo'lishi kerak degan fikri bilan bu tizim mohiyati va ta'sirining me'yoriy asoslarini yaratdi.

Tib ilmining dahosi Ibn Sino nafaqat tabiiy fanlar, shu bilan birga, jamiyatshunoslik va huquq haqidagi qarashlari bilan ham o'rta asrlarning ma'rifiy merosiga sezilarli hissa qo'shgan. U ahloq, ijtimoiylik, insonparvarlik va adolat tushunchalariga to'xtalar ekan, bu masalalarni falsafaning alohida fan tarmog'i sifatida tadqiq qilinishi lozimligi haqidagi fikrlarni bildiradi. Uning "Risolatu tadbiri manzil" asarida insonning shaxsiy talab-ehtiyojlari, ularni qondirish usullari, insonning jamiyatda tutgan o'rni va vazifalari bilan bog'liq masalalar to'g'risida fikr yuritadi hamda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan qonunlar zarurligini, qonunshunoslar ularga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini berishlari lozimligini aytadi.

Sharq uyg'onishining yana bir yirik namoyandasi Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi ko'plab g'oyalar va ilmiy xulosalar bevosita inson va u yashab turgan jamiyat taqdiri, uning ijtimoiy-jamoaviy munosabatlardagi roli bilan bog'liq tarzda o'rganiladi.

Beruniy "Mineralogiya" asarining muqaddimasida inson va uning hayoti, yerdagi burchi, olijanobligi haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Shuningdek, u jamiyatning shakllanishi, tillarni o'rganishning ahamiyati, iqtisod, axloq va odob masalalariga to'xtalgan. Asarda ijtimoiy adolat mavzusiga ham alohida e'tibor qaratilib, bu haqda muhim fikrlar bildirilgan. "Mag'ribning uzoq o'lkalarining birida yashaydiganlar haqida hikoya qilishlaricha, u yerlarda o'lkani idora qilish a'yonlar va yer egalari o'rtasida navbatma-navbat bir-biriga o'tib turarmish, kimga navbat kelsa, o'sha uch oy hukm yuritarmish. Muddati tugashi bilan o'z-o'zidan o'lkani idora qilish amaldan tushib, minnatdorchilik uchun sadaqa berar va o'z ahli orasiga qaytar, bu bilan u go'yo kishandan bo'shaganday xursand bo'lar va o'z ishi bilan band bo'lar emish. Bu shuning uchunki, idora qilish va boshqarish rohatdan mahrum bo'lish, degan so'zdir. Bunda u o'sha joydagi ezuvchilarni eziluvchilarga nisbatan adolatli qilaman, deb holdan toygan bo'ladi. Bu degan so'z, ularni qo'riqlash (u yer egalari) ...mol-mulki, hayotini himoya qilaman, deb tinkasini quritish deganidir".

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, boshqaruv faoliyatining negizida, rahbar tasarrufiga oid bo'lgan barcha ishlarda unga vakolat taqdim qilgan har bir shaxsning daxlsizligi muhofaza etilishi va ular orasidagi aloqalarni odilona tashkil etish va bu uning "tinkasini quritar darajada" mashaqqat talab qilishi aksiomik tarzda tushuntiriladi. Beruniy qarashlarida ijtimoiy tengsizlik qattiq qoralanadi va unga nisbatan murosasiz ravishda asoslab beriladi. Bunda insonning shaxsiy huquq-erkinliklarga ega ekanligidan uning jamiyat hayotining iqtisodiy-siyosiy va madaniy sohalarida teng huquqlilik asosida faoliyat ko'rsatishi zarurligi nazarda tutiladi.

Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiylik, axloq va odobning asosiy masalalari bo'yicha qarashlari insoniylik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan. U xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yoqlab,

hukmdorlarning o'zaro urushlariga qarshi chiqadi. Uning ijtimoiy qarashlari markazida inson, insoniy jamiyat turadi.

Inson huquqlari va ularga amal qilishning yo'llari, shart-sharoitlarini ko'rsatib berishga doir Sharq mutafakkir olimlari, davlat va jamoat arboblari tomonidan yaratilgan ta'limotlar o'z davri uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ular o'zining ahamiyatini bizning davrimizda ham yo'qotgani yo'q.

Temuriylar davrida inson huquqlari g'oyalarining rivojlanishi. XIV-XVI asr boshlari Temuriylar hukmronligi ostida shakllangan ma'rifiy muhit ta'sirida gumanitar qarashlar va elitar tafakkur mintaqamiz hududida inson huquqlari g'oyalarining yanada takomillashishi va mafkuraviy asoslarini keng quloq yoyishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda yashab bashariyatning ma'naviy va madaniy olami kamolotida o'chmas iz qoldirgan davlat va jamoat arboblari Amir Temur, Alisher Navoiy, Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo kabi ulkan tarixiy shaxslarning boy ma'naviy-ma'rifiy merosida inson huquqlari alohida o'rin egallagan.

Sohibqiron Amir Temur nafaqat mohir sarkarda sifatida yigirmadan ortiq mamlakatlarni zabt etgan, balki yuzdan ortiq turli millat va elatlarni yagona bayroq ostida birlashtirib, adolatparvarlik va barcha tabaqalarning manfaatlarini ko'zda tutadigan insonparvar davlat boshqaruvini tashkil qilgan. Qonunga asoslangan tizimning ahamiyatini chuqur anglab olgan Amir Temur o'zining uzugida muhrlangan "Kuch – adolatdadir" degan naqlga qat'iy amal qilib, adolat va insof me'zonlariga doimo sodiq bo'lgan. Uning bu so'zi bugun ham qudratli, huquqiy demokratik davlat qurish uchun asosiy yo'llanma hisoblanadi. Buyuk sarkardaning huquqiy qarashlari va amaliy faoliyati har doim adolat va insof me'yorlari bilan hamohang bo'lgan. Uning hukmronligi ostidagi hududlarda tuzuk-to'ra va shariat qoidalari ustuvor hisoblangan va ularga amaldorlar tomonidan rioya qilinishini qat'iy nazorat qilgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda o'ziga xos tartib bunyod etadi. Hokimiyat harbiy-boshqaruv prinsiplari asosida amalga oshirilgan bo'lsa-da, ikkita mustaqil idora: Dargoh – hukmdor boshchiligida saltanat ahamiyatiga molik neg muhim masalalar muhokama qilinadigan, uning yaqin kishilari va qarindoshlaridan iborat maslahat kengashi. Unda hozirgi qonun chiqaruvchi hokimiyatning ayrim elementlari ko'zga tashlanib, oliy hukmdorning barcha uchun majburiy bo'lgan farmon va hukmlari chiqarilgan. Devon – ijroiya hokimiyatining anglatib, davlatning asosiy funksiyalari bo'lgan soliq va moliya, harbiy va savdo, mukchilikga oid masalalarni hal qilgan. Barcha yo'nalishlar bo'yicha vazirlar tayyorlanib, ularga devonbegi (bosh vazir) boshchilik qilgan.

Bugungi kunda ham Sohobqironning sud va qonunchilik tizimiga bo'lgan munosabati o'rnak oladigan va muhim ahamiyat kasb etadigan jihatlardan biri hisoblanadi. Qariyb yetti asr muqaddam Movarounnahr hududida o'ziga xos sud tartiboti va qoidalari shakllangan edi.

Masalan, fuqarolik ishlari ijroiya tizimida faoliyat yurituvchi adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, jamiyatdagi ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega masalalar islom qozisi zimmasiga yuklatilgan. Harbiylar orasida yuzaga kelgan huquqiy muammolarni esa askar qozisi, ya'ni bugungi tushuncha bilan ifodalaganda, harbiy tribunal hal etgan.

Bizning fikrimizcha, Amir Temurning davlat boshqaruvi bobida amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy islohotlari, uning siyosiy tafakkuri fransuz ma'rifatparvari Monteskyening XVIII asrda demokratiyaning "oltin qoidasi" hisoblangan hokimiyatlarning bo'linish prinsipiga oid g'oyalariga mutlaqo uyg'undir.

Ulug' sarkardaning davlatni boshqarish, harb ishi hamda huquqqa oid qarashlari "Temur tuzuklari", ("Tuzuki Temuriy") deb nomlangan maxsus asarida keltiriladi. Unda "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim. Ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlarni va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohi uchun dargohimga yo'l berdim. Raiyatini o'zimga qaratib oldim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo'lini to'sdim" .

Qur'oni karim oyatlari va shariat ta'limotining ruhi uning "Tuzuklar"iga singib ketgan. Ilohiy yo'llanmalarni nazarda tutgan holda, Sohibqiron adolatning kuchiga, uning g'alabasi va yengilmasligiga chuqur ishongan edi. Qonun darajasiga ko'tarilgan ushbu ishonch va aqidani uning "Tuzuklar"idagi quyidagi qisqa so'zlardan anglash mumkin: "Adovat emas, adolat yengadi", "Qonni qon bilan emas, suv bilan yuvishni o'rgan", "Men saltanatimni islom dini va To'ra tuzuklari asosida mustahkamladim".

Muhtasiblar mamlakat bo'ylab tarqalgan bo'lib, ular shahar va qishloqlarda yurib, jinoyat sodir bo'lishining oldini olishni ta'minlagan. Sohibqiron o'z "Tuzuklar"ida "Har mamlakatga shayxul-islom yubordim, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin" deb ta'kidlaydi.

Amir Temur davrida muhtasiblar katta vakolatga ega bo'lib, huquqbuzarlarga qarshi faoliyat yuritgan hamda inson huquqlarini himoya qilgan. Masalan, aroqxo'rlik, qimorbozlik, ko'zbo'yamachilikka qarshi kurashib, bozorlarda sifatsiz mollarni sotish, qalbaki pul tayyorlash va ishlatish, chayqovchilarning odamlarni aldab, mollarni arzon narxda sotib olishi, sog'liq uchun zararli bo'lgan oziq-ovqatlarni bozorga kiritishning oldini olib turganlar .

Amir Temur va temuriy hukmdorlar himoyasi ostida Markaziy Osiyo – madaniyat o'chog'iga aylanib, Samarqand va Buxoro kabi tarixiy shaharlar shunday bir fan va madaniyat markaziga aylandiki, O'rta Osiyo, Eron, Iroq, Ozarbayjon va boshqa o'lkalardan ilm va adabiyot toliblari hamda badiiy san'at muxlislari bilim olish maqsadida bu yerga kelib istiqomat qilishgan. Samarqand saltanat markazi sifatida o'zining moviy gumbazlari, naqshinkor peshtoqlari va osmono'par minoralari bilan, mashhur madrasalari, xonaqohlari, karvonsaroy va mehmonxonalarida ilm va ma'rifat eshiklarini ochib berardi.

Bu davrning yana bir namoyondasi, buyuk alloma, so'z ilmining dahosi Alisher Navoiy o'z asarlarida adolatli jamiyatning asosi insonparvarlik va tenglikka asoslangan ma'rifatli boshqaruv ekanligi haqida fikr yuritadi. Ham badiiy, ham g'oyaviy jihatdan barkamol asar bo'lgan Navoiyning "Xamsa"si vatan va xalq taqdiri, inson kamolotining eng yuksak cho'qqilarini tarannum etuvchi nodir asardir. "Xamsa"ning birinchi dostoni bo'lmish "Hayrat ul-abror"ning uchinchi maqolasini sultonlar va ular tomonidan qo'llanishi zarur bo'lgan insof va adolatga bag'ishlagan. Xususan, unda keltirilishicha, Sulton Husayn Boyqaro bir oddiy bechora kampirning da'vosiga binoan, shariat sudiga (mahkamasiga) borib, o'z gunohini e'tirof etgani va qozining unga qarshi chiqargan qarorini qabul qilgani haqida ma'lumot beradi.

Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida mo'min-musulmonlarning dinga e'tiqod qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida Naqshbandiya tariqatida berilgan fikrlarga yuqori baho beradi. Uning yozishicha, Bahouddin Naqshband islom shariatiga va uning talablariga rioya qilish ixtiyoriy ekanligini qayd qiladi va bu talablarning ijrosida insonning qadr-qimmati kamsitilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi zarurligini ta'kidlaydi.

Mamlakat va xalq taqdirini shohning adolati bilan bog'lash Sharq tafakkur olami uchun Navoiyning oldidan ham mavjud an'ana sifatida shakllangan. Navoiy odil hukmdor g'oyasini "Saddi Iskandariy"da va boshqa asarlarida yanada aniqlashtirib, o'z davri muammolari bilan ramziy, majoziy obrazlarda bog'lagan.

Shuningdek, mutafakkirning "Mahbub ul-qulub" asarida shohdan tortib oddiy fuqarogacha o'z oldilarida qanday vazifalar turganini anglashga da'vat qilinishi bejiz emas. Mamlakat aholisi siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy va boshqa ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarining rivojlanishi fuqarolararo munosabatlarning yanada yuksak shakllarga ko'tarilishida zarur muhit yaratadi.

Xalq va davlat munosabatlarining har tomonlama mustahkamlanib borishi tabiiy yo'sinda ma'naviy-mafkuraviy birlikka ehtiyojni oshiradi. Shunday ehtiyojlarning bir ko'rinishi Alisher Navoiy ilgari surgan til birligiga erishish g'oyasi edi. Turkiy hukmdorlar o'z salohiyatlarini ona tillarida namoyon etsalar, bu bilan ona tilining rivojiga ham hissa qo'shgan bo'lar edilar. Shuningdek, davlat mustaqilligi ona tilining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lganligi ta'kidlangan.

Alisher Navoiy asarlarida insonning tabiiy huquqlari chuqur yoritilgan bo'lib, u adolat, tenglik, erkinlik va halollik tamoyillariga asoslangan jamiyatni ideal deb bilgan. Uning fikricha, inson o'z huquqlaridan foydalana olishi, hurmat va adolat asosida yashashi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omildir.

Temuriy hukmdor, boburiylar imperiyasi asoschisi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur umrining ko'p qismi davlat ishlari, muhoraba va hijratlarda o'tgan bo'lishiga qaramay, ilm-fan va ijod bilan astoydil shug'ullangan. Uning memuari hisoblangan "Boburnomada"da insonning jamiyatdagi o'rnini va roli masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Uning oqil va tadbirli davlat arbobi bo'lgani davlat va fuqarolar o'rtasidagi nozik munosabatlarda hamda inson va jamiyatga oid masalalarni o'zi yashagan davrning aniq shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda ifodalashida ko'zga tashlanadi. Farzandlariga yo'llagan maktub va vasiyatlarida ular diniy, irqiy hamda ma'naviy qadriyatlarga zid bo'lgan harakatlardan tiyilishlari, shuningdek, diniy bag'rikenglik tamoyillariga amal qilib ish yuritishlari lozimligini alohida ta'kidlaydi.

U davlat boshqaruvida adolat tamoyillariga rioya qilish zarurligini ta'kidlab, zolim va o'z manfaati yo'lida xalqni ezadigan amaldorlarni qattiq tanqid qilgan. Uning qarashlariga ko'ra, hukmdor faqat kuch bilan emas, balki odillik va insonparvarlik bilan ham boshqarishi lozim.

Bobur Mirzoning nafaqat davlat ishlarida mohirligi, balki huquqshunoslik sohasida ham yetuk olim ekanligi uning islom va fiqh asoslarini bayon etuvchi "Mubayyin" deb nomlangan asarida o'z isbotini topadi. Asar e'tiqod, salot (namoz), zakot, savm (ro'za) va haj masalalariga bag'ishlangan beshta qismdan iborat bo'lib, fiqhiy masalalar masnaviy janrida o'ziga xos bayon uslubi orqali chuqur bilimdonlik bilan tushuntirib berilgan.

Sharq Uyg'onish davri hamda Temuriylar Renessansi (Ikkinchi Uyg'onish davri) deya e'tirof etilgan bu vaqtlar oralig'ida yashagan ulug' mutafakkirlar, allomalari, adiblar, hukmdor va sarkardalar fikrlarini tahlil qilar ekanmiz, ularda Yaratganning eng buyuk yaratig'i bo'lgan insonni ulug'lash bilan bir qatorda, har bir shaxsning erki va ozodligi, tengligi, mulkka, uy-joyga ega bo'lish, ijtimoiy himoya, adolatli mehnat shart-sharoitlariga ega bo'lish va moddiy farovonlikka erishish kabi huquqlariga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, mazkur huquqlarning inson qadr-qimmatini, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida ta'minlanishi, ularni jamiyatdagi belgilangan me'yorlar asosida kafolatlash masalalari hamda davlat taraqqiyotdagi o'rnini haqida qimmatli fikrlar berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Jadid ma'rifatparvarlarining faoliyatida inson huquqlarining rivojlanishi. XIX asrning oxiri va XX asr boshlari – vatanimiz tarixida g'oyat tahlikali va murakkab davrda Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida katta ijtimoiy-ma'rifiy kuch sifatida jadidchilik harakati maydonga chiqdi. Ushbu taraqqiyparvarlik g'oyalarining asosi – Turkistondagi mavjud chuqur iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy inqirozdan xalos bo'lish, xalqni qoloqlikdan chiqarish, erkinlikka erishish hamda xalqni

ma'rifat yo'li orqali zamonaviy va barqaror taraqqiyotga erishish edi. Jadidlar shu maqsad yo'lida jasorat va fidoyilik bilan mardonavor harakat qiladilar.

Tarixdan ma'lumki, insonlar har doim ham o'z erkinligi va huquqlariga osonlikcha erishmagan, aksincha, zolim aristokratiya yoki adolatsiz hukumatga qarshi muntazam kurash va qon to'kishlar orqali erishilgan. Ayqnigsa, tariximizning qora sahifalari bo'lmish mustamlaka tuzumida bu adolatsizlik yaqqol ko'zga tashlana bordi. Chor hukumati tomonidan zaminimizda yashagan xalqlar huquqsizlik botqog'iga botirildi, erkinligi, haq-huquqlari ayovsiz toptaldi. Turkiston jadidchilik harakatining rahnamalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning "Haq olinur, berilmas!" deya ta'kidlagani, o'sha davr sharoitida aytilgan qahramonona nido edi.

Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fayzullo Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Obidjon Mahmudov, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Boboxxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov – milliy hurlik va jamiyat taraqqiyotiga erishish yo'lida faoliyat yuritganlar. Ular xalqning ilmiy-ma'rifiy saviyasini oshirish, so'z va fikr erkinligini qaror toptirish hamda mustamlakachilik zanjiridan xalos bo'lishga intilib, murakkab siyosiy sharoitda katta jasorat namoyon etgan.

Erk, tenglik, va adolat g'oyalari bu kuchli harakatning asosiy harakatlantiruvchi maqsadlari hamda orzulari edi. Bu orzu "Behbudiy va Avloniy, Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning xalq erkinligi va soadati yo'lidagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi".

Jadidlar jamiyatdagi chuqur tanazzul vaziyatini anglagan ziyolilar edi. Ular ayni davrdagi G'arb davlatlarining iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi jadal rivojlanishi va ularning siyosiy hayotdagi o'zgarishlardan xabardor edilar. Shuningdek, bu jarayonlarni diqqat bilan kuzatib turgan jadidlar yurtdagi mavjud ahvolni chuqur tahlil qilar, taqqoslar va bu inqirozdan chiqish yo'lida harakat qilishardi. Aholining katta qismi savodsiz – o'qish yozishni bilmas, harf tanimasdi. Bunday paytda haq-huquqlar bilish va talab qilish haqida gap-so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. Shu sababli, ular bu ma'naviy botqoqlik va tanazzuldan mamlakatni faqatgina ilm, ziyo va ma'rifatgina olib chiqishini bilgan holda, avvalo, yoshlarni ta'lim olishga va zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishga sharoit yaratish haqida o'ylaydi. Shu maqsadda, jadidlar tomonidan yangi maktablarga ochish, maktablar uchun darsliklar yaratish jarayoni boshlandi. "Usuli jadid" maktablarida diniy fanlar va arab tili bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, tabobat, nujum, fiqh, handasa fanlari, rus, fors tillari – jami 17 tagacha fan o'rganilishi lozimligi ilgari surildi. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yaratilgan hamda xat yozishda o'n sakkizta qoidani o'z ichiga olgan "Kitobat ul-atfol" (Bolalar uchun yozuv kitobi) asari huquqiy bilim va savodxonlik, hujjat yurituvchi, murojaat qilish

kabi elementar huquqiy harakatlarni amalga oshirish uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, ular ta'lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ'ib qilib, turli diniy e'tiqodlarni hurmat qiladigan, bag'rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg'u beradilar. Munavvarqori Abdurashidxonov "Taraqqiy" jurnalidagi maqolasida bag'rikenglik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi ta'lim tizimi zarurligini ta'kidlab: "Ta'lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo'lishi, o'quvchilarning o'z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakillantirishi mumkin bo'lgan makonni ta'minlashi kerak", degan edi.

Yuqorida nomlari keltirgan jadidlar tomonidan ma'rifiy-siyosiy sohada o'ziga xos jamiyatlar (hozirgi fuqarolik jamiyati va demokratik institutlarning ilk ko'rinishlari) tuzila boshlandi. Bu borada "Turon", "Jamiyati xayriya", "Tarbiyai atfol" kabi jamiyatlar ochilib, ular yordami bilan yoshlar chet ellarga xususan, Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalarga, shuningdek, Istambul, Qohira kabi xorijiy shaharlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuboradilar.

Inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblangan ayollar huquqlari jadidlar e'tibor qaratgan muhim masalalardan yana biri edi. Turkiston hududida xotin-qizlarning savodxonlik darajasi nihoyatda past bo'lib, ularning aksariyati faqatgina otinoyilar tomonidan uy sharoitida tashkil etilgan maktablarda tahsil olar, ta'lim jarayonida esa 3–4 ta diniy suralarni yod olish bilan cheklanardi. Shundan so'ng ular asosan uy-ro'zg'or yumushlari bilan shug'ullanishgan, tikuvchilik kabi amaliy ko'nikmalarni egallashgan va nihoyat, jamiyatda mustahkam o'rinishgan erta turmush qurish odati tufayli butun umrlari to'rt devor orasida o'tgan. Jadidlar bu holatni keskin tanqid ostiga olib, erkak va ayollar teng huquqli insonlar ekanini, farzand tarbiyasi asosan onalarga yuklatilganini e'tirof etgan holda, ayollarning bilim darajasini oshirish va ular uchun zamonaviy maktablar tashkil etish zarurligini qat'iy ilgari surganlar.

Millat oydinlari hisoblangan jadidlar jamiyatni ma'rifatli qilishda so'z va matbuot vositasidan foydalanish juda muhimligini tushunardilar. Jadidlar tashkil etgan "Taraqqiy", "Sadoi Farg'ona", "Ulug' Turkiston", "Najot", "Hurriyat" kabi ilk bosma nashrlarda ular o'zlarining o'tkir fikrlari va milliy-ozodlik g'oyalari yo'g'rilgan qarashlari aks etgan maqolalari orqali keng ommani uyg'onishga, hurlikka, shuningdek, mustamlaka tuzumni ag'darish va muxtoriyat hukumatini barpo etish, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish kabi ezgu maqsadlarni amalga oshirishda mafkuraviy kurashga kiradilar.

Insonning huquqlarining asosiy tamoyillaridan hisoblangan odillik, tenglik va adolat kabi tushunchalari jadid harakati faoliyatida ham o'z aksini topadi. Ya'ni ularning fikricha, davlatning yashovchanligi mamlakatda tenglik va adolat prisniplari naqadar mustahkamligi bilan bog'liq. Shu sababli ma'rifatparvarlar o'z asarlarida insonlar orasidagi haqiqat, adolat, teng munosabatda

bo'lish, o'zganing huquqlariga daxl qilmaslik kabi tushunchalar mazmun-mohiyatiga alohida to'xtalib, ularni ommaga tushuntirishga harakat qilgan. Masalan, Abdula Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida "... insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarining onasi haqqoniyatdur. Aql egalari, vijdon sohiblari har vaqt ko'rgan, qilgan va bilganlarini, haqiqatni va to'g'risini so'zlar. Ishda to'g'rilik birovning nafsiga, moliga xiyonat qilmoq, so'zda to'g'rilik har vaqt rost so'zlamaklikdur. ... Janobi Haq butun yer yuzidagi insonlarni huquqda musoviy – barobar qilub yaratmishdur. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga mag'rur bo'lub, birovning haqiq'a taarruz va tajovuz qilmak zulmdur" deya ta'kidlagan.

Jadidlarning umumiy maqsadi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan erkin davlat barpo etish edi. Bu yo'lda ular avvalo xalqni savodli, ilmi va ma'rifatli qilishga alohida e'tibor qaratdilar. Chunki xalqning ongini uyg'otmasdan turib, har qanday taraqqiyotga erishib bo'lmasligini yaxshi anglagan edilar.

Shuningdek, jadidlar faoliyatining negizida inson huquqlari g'oyasi muhim o'rin tutardi. Ular xalqning savodli bo'lishini, fikr erkinligini, tenglik va adolat tamoyillarini inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida ko'rgan edilar. O'sha davr mustamlakachilik siyosati sharoitida xalqning asosiy huquqlari, jumladan, ta'lim olish, so'z va matbuot erkinligi, o'z milliy madaniyatini rivojlantirish, diniy erkinlik kabi huquqlari cheklangan edi. Jadidlar esa aynan shu huquqlarni tiklash va himoya qilish uchun kurashdilar.

1917-yil 26-noyabrida Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi chaqirildi. Unda yangi muxtor o'lka – Turkiston Muxtoriyati tashkil etilganligi to'g'risida qaror qabul qilindi. Qisqa muddatda hukumat tarkibi shakllantirilib, boshqaruv Muvaqqat kengash qo'liga o'tdi.

Muxtoriyat jadidlar faoliyatining tarixiy natijasi edi. Ular demokratik asoslarga tayangan huquqiy davlat qurishga intildilar. Masalan, Muvaqqat hukumat tomonidan imzolagan ilk maxsus Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi. Bu muxtoriyat jadidlar harakati orzu qilgan xalq hokimiyati, milliy o'zlikni tiklash va inson huquqlarini ta'minlash yo'lidagi ilk siyosiy tajriba edi.

Muxtoriyat qisqa – 72 kunlik faoliyat davri mobaynida bir qator yirik islohotlarni amalga oshirishga ulgurdi. Xususan, hukumat vakillari hududlarda muxtoriyat tuzilmalarini tashkil eta boshlashadi. Minataqadagi ilk demokratik hukumat bo'lgan Turkiston Muxtoriyatining parlamenti – Xalq majlisiga tashkil etilib, unga mintaqaning turli hududlaridan 32 nafar vakil saylanadi. Taniqli va tajribali huquqshunoslar jalb etilib, Muxtoriyat konstitutsiyasini tayyorlash ishlariga kirishiladi. Muxtoriyat hukumati tomonidan o'zbek, qozoq va rus tillarida hukumat gazetalari

nashr etila boshlanadi. Hukumat tomonidan iqtisodiy sohada milliy valyuta chiqarish yo'liga qo'yildi.

Biroq, bolsheviklar tomonidan tor-mor etilishiga qaramay, Muxtoriyat milliy davlatchilik tarixida alohida sahifa bo'lib kirdi va o'lka xalqlari xotirasida o'chmas iz qoldirdi. Bosqinchilar istilo qilingan xalqlar taqdiri hamda ularning haq-huquqlari naqadar ahamiyatsiz ekanligini yana bir bor isbotladilar. Bu tajriba keyingi istiqlolchilik va davlatchilik harakatlariga yo'l ochgandi.

Sobiq tuzum davridagi sharoit. Tariximizning qora sahifalari bo'lmish sobiq tuzum davri qariyb 70 yil davom etdi. Bugungi kunda davlatimiz konstitutsiyaviy tuzumining asosiy belgisi deb e'tirof etilayotgan konstitutsiya va qonun ustuvorligi tamoyili o'sha davrda umuman teskari tus olgan edi. Mamlakatda sovet fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini e'lon qiluvchi Konstitutsiya amal qilsa ham, qonunsizlik va o'zboshimchalik ushbu normalar bilan hisoblashmas edi. Sovet fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari to'g'risidagi moddalarni o'z ichiga olgan SSSRning 1936-yilgi va O'zbekiston SSRning 1937-yilgi konstitutsiyalari qabul qilinganidan so'ng deyarli darhol dahshatli Stalin davri terrori boshlanganini unutmaslik kerak.

Hatto insonning asosiy huquqlari va erkinliklari ro'yxatini kengaytirgan SSSRning 1977-yilgi va O'zbekiston SSRning 1978-yilgi Konstitutsiyalari qabul qilingan "sokin yillar"da ham mamlakatni boshqargan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi Asosiy Qonunning moddalariga amalda mensimay munosabatda bo'ldi.

Hokimiyatda bir partiyaning yakka hukmronligi saqlanib qolgan sharoitda xalq hokimiyatchiligi jamiyatning siyosiy asosi bo'la olmas edi. Qattiq markazlashtirilgan rejali davlat iqtisodiyoti esa xususiy mulk huquqini inkor etishga asoslangan edi. Sud majlislarida qabul qilingan qarorlar ko'pincha qonun talabini emas, balki "telefon huquqi"ni aks ettirardi. Erkin fikrlash ma'muriy-polisoyachilik usullari va sud jarayonlari bilan bartaraf etilardi.

Tashabbus va manfaatlar cheklanib qo'yilgan edi: nimaga va qancha ega bo'lishni davlat belgilardi. Qashshoq bo'lish mumkin, ammo boy bo'lish aslo mumkin emas edi. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi, axloqi ham shunday edi. Qonun ham shuni aks ettirar edi.

Qattiq totalitar tuzum sharoitida inson huquqlari umuman himoya qilinmagan, u haq-huquqsiz va sukunatga majbur qulga aylantirilgan edi. Uning taqdirini qonun emas, balki partiyaning buyrug'i, amaldorning ixtiyori hal qilardi. Odamlarni e'tiqodi uchun ham, dini uchun ham javobgarlikka tortdilar. Xalqimizning suyuqli ayyomi Navro'z taqiqlangan, diniy bayram deb e'lon qilingan edi. Partiya arboblari qo'lidan kelganicha o'zboshimchalik qilardilar.

O'zbekiston so'zda federatsiya subyekti sanalar edi, amalda esa hech qanday ittifoqning o'zi yo'q edi. Markazlashgan unitarizm hukm surar, kadrlar va boyliklar markazdan turib taqsimlanar edi. Har qanday e'tiborli inshoot faqat markazning roziligi va ma'qullashi bilan, u mablag' ajratgan taqdirdagina qurilishi mumkin edi.

Insonga tegishli “tabiiy, bo‘linmas, ajralmas huquqlar” tushunchasining o‘zi sovet konstitutsiyalarida qo‘llanilmas, yuridik fandagi tadqiqotlar esa asosan xorijiy davlatlarning davlatchilik va huquqiy tizimi tarixini yoki konstitutsiyaviy tuzumini o‘rganish bilan cheklanilar edi. Ushbu huquqlar, odatda, burjua jamiyatida feodal hukmronligini cheklash shiori ostida maydonga chiqqan uzoq o‘tmish yodgorligi deb qaralardi.

Tabiiy, ajralmas va uzviy huquqlarning qabul qilinishi mumkin emasligi aniq edi. Buning sababi, birinchi navbatda, ularning tan olinishi davlat hokimiyatining cheklanishini anglatardi. Chunki bu holat inson hayotining muayyan sohasiga davlatning aralashmasligi lozimligini, hatto bunday aralashuvning konstitutsiyaviy jihatdan ham mumkin emasligini bildirardi. Davlat ushbu toifaga kiruvchi ayrim huquqlarni bekor qilish vakolatiga ega bo‘lmas edi. Buning ustiga, agar bunday huquqlar tan olinsa, mantiqan davlat ularni ta‘minlash bo‘yicha zarur himoya mexanizmlari va to‘siqlarini yaratishi lozim bo‘lardi. Albatta, bunday cheklovlar dunyodagi hech bir avtoritar tuzum rozi bo‘la olmaydi. Demokratiya va uning raqiblari, jumladan, soxta demokratik modellar o‘rtasidagi farq ko‘pincha aynan tabiiy, ajralmas va uzviy huquqlar orqali aniqlanadi — bu bejiz emas.

Sobiq markazning respublikalar hayoti va faoliyatini qat’iy tarzda boshqarishga urinishi, tabiiy ravishda, bunday siyosatga qarshi noroziliklar va bosh ko‘tarishlarga sabab bo‘lgan edi. O‘z taqdirini o‘zi belgilash va ozodlik uchun kuchli harakatlar boshlangandi. Markaz o‘zining og‘ir ahvolga tushib qolganini anglab, yangi Ittifoq shartnomasining loyihasida respublikalar talablarini inobatga olish taklifi bilan chiqdi. Biroq bu taklif aslida odamlarni chalg‘itishdan boshqa narsa emas edi. Ittifoq shartnomasining ketma-ket e‘lon qilingan besh loyihasining hech birida respublikalar manfaatlari inobatga olinmagan edi. Aksincha, Markaz imkon qadar ko‘proq vakolatni o‘zida saqlab qolishga harakat qildi va shu bilan yangilangan federatsiya g‘oyasiga putur yetkazdi.

Ittifoqning parchalanishi yaqqol ko‘rinib qolgan edi. Nochor, irodasiz, ma‘naviy va siyosiy jihatdan zaiflashgan, biroq hali ham ulkan hokimiyatga da‘vogarlikdan voz kechmagan Markaz iqtisodiy beqarorlik, xo‘jalik aloqalarining uzilishi sharoitida bunday hokimiyatni boshqara olmas edi.

Mamlakatda parokandalik va boshboshdoqlik tobora kuchayib borardi. Bunday sharoitda sobiq Ittifoqning barcha respublikalari o‘z oldiga harakatlanishning yagona to‘g‘ri yo‘li sifatida mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanladilar.

Mustaqillik davri. Barcha ittifoqdosh respublikalar birin-ketin o‘zlarini mustaqil davlat deb e‘lon qildilar. Davlat mustaqilligi maqsadlariga erishish uchun o‘tmishdan kerakli saboqlarni chiqarish, eskirgan aqidalardan va boquvchilik kayfiyatidan tezroq xalos bo‘lish, yangilanish hamda siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotda tub islohotlarni amalga oshirish zaruriyatga aylandi.

Ikki muhim hujjat: 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik deklaratsiyasi” hamda 1991-yil 31-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari haqida”gi konstitutsiyaviy qonun o‘sha davrdagi parlament – Oliy Kengash tomonidan qabul qilinishi bilan buyuk ajdodlarimiz, xalqimiz orzu qilgan erk yo‘lidagi asriy maqsadlarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 1-sentyabrda o‘z davlat mustaqilligini e‘lon qilgach, qat’iy huquqiy me‘zonlarga tayanadigan, faol fuqarolik jamiyatiga asoslangan, xalq hokimiyatini ifoda etuvchi demokratik davlat barpo etish yo‘lidan bordi. Ushbu ulug‘ maqsad pirovardida ming yilliklar davomida shakllangan buyuk o‘zbek etnosining milliy qadriyat va an‘analarini o‘zida mujassamlashtirgan, demokratiyaning asosiy prinsiplari ustuvor yo‘nalish qilib belgilangan, shaxs, jamiyat va davlatning uyg‘unlashgan mohiyatini aks ettiruvchi rivojlanishning sharqona-o‘zbek modelini yaratish asosiy g‘oya qilib belgilandi.

Mustaqillik yillarining ilk kunlaridanoq O‘zbekiston o‘z oldiga, huquqiy, demokratik, dunyoviy, faqatgina adolatli qonunlarga asoslangan farovon jamiyat qurishni maqsad qildi. Xususan, mustaqillikning dastlabki yillari inson huquqlari sohasida muhim islohotlar davri bo‘ldi. O‘zbekiston xalqaro huquqning to‘la huquqli subyekti sifatida faol tashqi siyosat olib borib, o‘z faoliyatida barqaror tinchlikka asoslangan xalqaro hamkorlik va inson huquqlariga chuqur hurmatni ifodaladi. Istiqlolning ilk besh yilidayoq mamlakatimiz inson huquqlariga oid asosiy 8 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va o‘z milliy qonunchiligida aks ettirdi.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar bilan hamkorlik qilish, o‘zaro mustahkam, uzoq va strategik aloqalarni rivojlantirish O‘zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosat konsepsiyasiga to‘la mos keladi. Inson huquqlariga oid xalqaro majburiyatlar va standartlariga sodiqlik sari birinchi qadam sifatida O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘ldi hamda uning inson huquqlari bo‘yicha ustav va shartnomaviy organlari bilan mustahkam aloqalar o‘rnatildi. Mamlakatimiz rahbarlari BMT Bosh assambleyasining 48-, 50-, 55-, 72-, 74-, 75-, 78- sessiyalarida nutq so‘zlab, global darajadagi yalpi tinchlik, barqaror rivojlanish va xalqaro munosabatlarda umuminsoniy manfaatlar ko‘zlangan taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Bugungi kunda, mamlakatimiz inson huquqlari sohasida 80 dan ortiq xalqaro hujjatlar, jumladan, BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan. 1996-yildan buyon hozirga qadar O‘zbekiston tomoni ushbu shartnomalarda belgilangan majburiyatlariga ijrosi yuzasidan 51 marta o‘zining milliy ma‘ruzalarini BMTning tegishli konvensiyaviy qo‘mitalariga taqdim etgan. Bu shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston inson huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarini sidqidildan bajarishga harakat qilib, xalqaro munosabatlarda o‘zaro chuqur hurmat va mas’uliyat ruhini ifoda etadi.

BMT tasarrufida undan tashqari ustav organlar va BMT atrofidagi boshqa tuzilmalardan iborat yaxlit inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi hamda ta‘minlovchi mustahkam

universal mexanizmlar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi, Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi, Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti va ixtisoslashgan muassasalar bilan mustahkam hamkorlik aloqalariga ega.

2020-yil 13-oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi a'zoligiga uch yil muddatga — 2021–2023-yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun BMTga a'zo 191 davlatdan 169 tasi ovoz berdi.

Shu ma'noda, O'zbekistonning BMT organiga a'zolik uchun intilgani bejiz emas. Bu samarador sa'y-harakat davlatimiz BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi a'zosiga yuklatiladigan majburiyatlarni astoydil bajarish va inson huquqlarini global miqyosda himoya qilishga qat'iy bel bog'laganidan dalolatdir. Biz mamlakatimizda ham, jahon miqyosida ham huquq va qonun ustuvor bo'lishi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari har tomonlama ta'minlanishi, himoya qilinishi va rag'batlantirilishi tarafdorimiz.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan hamda 2023-yil 30-aprelda umumxalq irodasi bilan tahrir qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – inson huquqlariga oid qonun hujjatlarining asosi va poydevori bo'ldi. Unda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalari mujassamlashgan. Shu bilan birga, qomusimizda insonning asosiy huquqlari: shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlari tavsiflanib, ularning barchasi konstitutsiyaviy maqomda kafolatlangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarda eng muhim o'rinda turadi".

Mamlakatimizda inson huquqlari bo'yicha davlat siyosatining bir qator ustuvor yo'nalishlari mavjud. O'zbekiston Respublikasining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi siyosatining asosiy tamoyillari:

- umume'tirof etilgan demokratiya va inson huquqlari tamoyillariga sodiqlik,
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda inson huquqlari sohasidagi tashqi siyosiy faoliyatni rivojlantirish,
- demokratik islohotlarni amalga oshirishda izchillik va bosqichma-bosqichlik yo'lidan borish,
- demokratlashtirish va inson huquqlarini himoya qilish jarayoni dinamik xususiyat kasb etishida namoyon bo'ladi.

Shu tamoyillardan kelib chiqib, O'zbekiston jamiyatning barcha jabhalarida va ijtimoiy hayotida inson huquqlari sohasidagi keng qamrovli xalqaro me'yorlarni tatbiq etishga kirishdi. Milliy norma ijodkorligi sohasida inson huquqlariga oid 600 dan ortiq qonun hujjatlari qabul

qilinishiga erishilgan bo'lib, mamlakatimizda bu borada mukammal qonunchilik bazasi yaratilganligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...inson huquq va erkinliklariga amal qilinishini ta'minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash biz barpo etayotgan ochiq, erkin va adolatli jamiyatning ajralmas xususiyatidir".

Inson huquqlari sohasida asos bo'luvchi xalqaro shartnomalarda ko'rsatilgan standartlarni milliy qonunchilikda ifoda etish O'zbekistonda inson huquqlari to'g'risidagi milliy qonunchilikning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Masalan, birgina so'nggi o'n yillik davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar orasida alohida e'tirof etiladigan hamda inson huquqlariga oid milliy islohotlar konsepsiyasini o'zida aks ettirgan qonunlar, xususan: O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida (2017), Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (2021), Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida (2017), Ichki ishlar organlari to'g'risida (2016) Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida (2024), Sudlar to'g'risida (2021) Qonunlar hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida (2018), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (2020), O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida (2023) kabi Prezident hujjatlari shular jumlasidandir.

Demokratik huquqiy davlat, avvalo, inson manfaatlari ustuvorligiga qaratilgan bo'lishi lozim. Huquqiy davlatda inson butun ijtimoiy mexanizm uning manfaatlariga bo'ysundirilgan markaz bo'lib boradi. Agar shu mazmunda huquqiy davlatga ta'rif bersak, shuningdek bu o'rinlidir, huquqiy davlat - inson manfaatlari ta'minlangan, uning huquqlari va erkinliklari oliy qonunlarda e'tirof etilib, davlat tomonidan qat'iy muhofaza qilinishini ta'kidlash joiz.

Xulosa qilib aytganda, kundalik hayotimizdagi inson huquqlari uzoq ming yillik tarix davomida inson huquqlariga oid qarashlar, fikrlar va g'oyalar tarzida, ushbu zaminda yuz bergan hodisalar ta'sirida voqelik bilan uyg'un shakllangan. Qadimgi 3-mingyillikdan boshlab shakllana boshlagan umumerkinlik, umumadolat va umumtenglikni tarannum etgan g'oyalar, hozirgi zamonaviy insonning asosiy huquq va erkinliklarining fundamental asoslarida mujassam bo'ladi. Uzoq tarixiy-tadrijiy yo'lni bosib o'tish barobarida rivojlangan inson huquqlari g'oyalarining bu ko'rinishi shu davrgacha mavjud barcha shakllarning eng mukammalidir.

Shu bilan birga ushbu tadqiqot aksariyat ajnabiy olimlarning bugungi inson huquqlari Yevropa madaniy inqilobining mahsuli mazmunidagi qarashlarini keskin inkor qiladi. Shu o'rinda biz akademik A.X. Saidovning quyidagi fikriga to'la qo'shilamiz: "...ana shu (xalqaro)

hujjatlarning qabul qilinishiga bashariyat sivilizatsiyasining bunga qadar bo'lgan butun kechmish tarixi, huquqiy, diniy va falsafiy tafakkur taraqqiyoti asos solganligi kundek ravshan. Bunda, xususan, quyidagi omillar muhim rol o'ynagan:

- 1) yunon falsafasida tabiiy huquq g'oyasining yuzaga kelganligi;
- 2) Rim huquqida xalqlar huquqi g'oyasining rivojlantirilganligi;
- 3) sharq diniy-huquqiy tizimlarida inson huquqlari g'oyasining rivojlantirilganligi;
- 4) o'rta asrlardagi nasroniy va islom huquqida barcha odamlarning Xudo oldida tengligi g'oyasi tasdiq topganligi;
- 5) Amerika va Fransiya konstitutsiyalarida tenglik g'oyasi sekulyarizatsiya qilinganligi va inson huquqlari yuridik jihatdan rasmiylashtirilganligi” .

Inson huquqlari g'oyasi miloddan avvalgi qadimiy sivilizatsiyalardan tortib to bugungi davrga qadar uzluksiz ilmiy, falsafiy va huquqiy izlanishlar mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur tadqiqotda ko'rsatib o'tilganidek, inson huquqlari nafaqat tashqi omillarga, balki ichki ma'naviy-madaniy merosga, din, falsafa, siyosat va huquq sohalaridagi taraqqiyot etagida shakllangan.

Inson huquqlari tarixiy rivojlanishining milliy modeli tahlili shuni ko'rsatadiki, zaminimizda vujudga kelgan huquqiy tafakkur maktablari va ularning xalqaro inson huquqlari standartlari bilan mushtarak jihatlari bevosita yaqin bog'liqlikni bildiradi. Bu esa inson huquqlari masalasida xalqaro normalar faqat G'arb sivilizatsiyasiga xos emasligini, balki Sharq tamaddunining ham bu boradagi hissiy beqiyos bo'lganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Bugungi globallashuv va turli geosiyosiy ziddiyatlar davrida O'zbekistonning BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga a'zoligiga saylanishi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi hamda xalqaro huquqiy tashabbuslar doirasida faol ishtirok etayotgani — mamlakatning huquqiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqayotgan muhim omil sifatida baholanadi. Bu yondashuv nafaqat milliy huquqiy siyosatning yetukligini, balki inson huquqlarini himoya qilish borasida xalqaro hamjamiyat oldidagi yuksak mas'uliyatni ham namoyon etadi.

Shu bois, inson huquqlari borasidagi tarixiy merosni o'rganish va undan zamonaviy huquqiy siyosatni shakllantirishda foydalanish zarurati yanada dolzarb tus oladi. Kelajakda inson huquqlarini himoya qilishning institutsional shakllarini yanada takomillashtirish, xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash borasida tizimli yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Zero, inson huquqlari g'oyasining asosida insonni oliy qadriyat deb bilish tamoyili yotadi va bu tamoyil har qanday demokratik jamiyatning negizidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BMT Ustavi va Xalqaro sud statuti. – T.: 2002.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – Toshkent: «Adolat» milliy huquqiy

axborot markazi, 2023. – 32 b. 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan.

3. A.X. Saidov, A. Sh. Jo'zjoniy. "Sharq sivilizatsiyasi: inson va huquq" (o'tmish va hozirgi zamon). – T.: "Adolat", 2005. 272 bet.

4. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. Mualliflar jamoasi: A.X.Saidov, M.T.Turg'unov, O.Fazilov, Sh.G'.G'oyibnazarov, L.F.Isxakova, A.T.Niyozov va boshqalar. – T., 2012. 21-bet

5. Turg'unov M. T. "Avesto"da inson huquqlarini o'rganishning metodologik muammolari: yuridik fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. – Toshkent. 2021.

6. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. Darslik. – Toshkent: 2012. 18-b.

7. Boboyev X., Dustjonov T., Hasanov S. "Avesto" – Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi. – Toshkent: TMI, 2004. –B. 16-17.

8. Safa-Isfahani N. Rivayat-i Hemat-i Asawahistan: A Study in Zoroastrian Law (Harvard Iranian Ser). - Cambridge, 1980. Vol. 2. -P.I

9. Turg'unov M. T. "Avesto"da inson huquqlarini o'rganishning metodologik muammolari: yuridik fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. – Toshkent. 2021.

10. Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq sivilizatsiyasi: Inson va huquq. – T.: Adolat, 2005. - B.31

11. Schacht J. Introduction to Islamic law. Oxford, 1966.- P.5; Батафсил маълумотлар учун: Сюкияйнен Л.Р. Доктрина как источник мусульманского права //Источники права. - М., 1985. -С.65-83.

12. Хайдарова М.С. Основные направления и школы мусульманского права //Мусульманское право. - М., 1984. - С.47.

13. Saidov A. X. O'zbekiston va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – Toshkent: "Adolat", 2018. – 25 b.

14. Инсон ҳуқуқлари. Ўқув қўлланма. /Х.Бобоев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон, 1997. - Б. 49

15. Инсон ҳуқуқлари. Ўқув қўлланма. /Х.Бобоев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 46.

16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2024.

17. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida. – T.:

Fan, 1975.

18. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1993. – Б. 159–160.
19. Бируни. Минералогия. – М.: 1963. – С. 30.
20. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная национальная права практика /Отв.ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С.21-22
21. Темур тузуклари. /Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Караматов тарж.; Б. Аҳмедов таҳр. остида. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996. – Б. 119
22. Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq sivilizatsiyasi: Inson va huquq. – Т.: Adolat, 2005. 219-bet
23. Ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-Жомий ас-сахих (“Ишончли тўплам”). – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – Б. 156.
24. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – В 18.
25. Muallif: Abdulla Avloniy. «Turon zamin» nashriyoti. – 2023-yil 15-bet.
26. O‘zbekiston tarixi: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik / Muall.: Q. Rajabov, A. Zamonov. - Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017. - 144 b.
27. A.Saidov. Inson qadri uchun. (Yuridik publitsistika). – Toshkent. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2022. – 280 bet.
28. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 22.02.2021.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi, 2019 yil 9 dekabr
30. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq.Darslik. - Т.: Konsauditinform-Nashr, 2006. -B.58